



AYOLLAR TADBIRKORLIGINI MOLİYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Saidova Subhinigor Azizovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-1756-6225

subhinigorsaidova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishning xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari tadqiq qilingan. Shu bilan birga bu jarayondagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari, ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, imtiyozli kreditlar, oilaviy tadbirkorlik, kreditlash, kredit riski, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, maqsadli kredit dasturi, biznes yuritish foiz stavkasi.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Саидова Субхинигор Азизовна

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье изучена зарубежная практика финансирования женского предпринимательства и возможности его применения в Узбекистане. При этом выделены существующие проблемы в этом процессе, а также разработана рекомендации по пути их устранения.

Ключевые слова: женское предпринимательство, льготные кредиты, семейное предпринимательство, кредитование, кредитный риск, малый бизнес и частное предпринимательство, целевая кредитная программа, ведение бизнеса процентная ставка

FOREIGN EXPERIENCE IN FINANCING WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP AND THE POSSIBILITY OF ITS USE IN UZBEKISTAN

Saidova Subhinigor Azizovna

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article examined the foreign practice of financing Women's Entrepreneurship and the possibilities of its use in Uzbekistan. At the same time, the existing problems are highlighted in this process, and recommendations for their elimination are developed.

Keywords: Women's Entrepreneurship, preferential loans, family entrepreneurship, lending, credit risk, small business and private entrepreneurship, targeted loan program, interest rate doing business.

Kirish.

Mamlakatimiz aholisining farovon turmush darajasini ta'minlash, uning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish hamda jahonning innovatsion jihatdan taraqqiy etgan ilg'or davlatlar qatoriga kirish kabi uzoq muddatga mo'ljallangan strategik vazifalar ko'lamining kengligi, ayni paytda, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi tizimli muammolarni saqlanib qolinayotganligi yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish borasidagi chora-tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning muhim shartlaridan biriga aylanishiga olib kelgan.

Jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishi tijorat banklari tomonidan kreditlash hisoblanadi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning YAIMdagi ulushi 70-75 foizni tashkil etadi. Iqtisodiyotda band bulgan aholining asosiy qismi ham shu soxada band bo'lib, ular Yaponiyada 70 foizni, AQSHda 80 foizdan ko'proqni tashkil qiladi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining 90 foizgacha bo'lgan qismi tijorat banklarining kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi⁷².

Ayollar tadbirkorligi muhim dinamik kuch sifatida jahon iqtisodiyoti maydonida namoyon bo'lmoqda. Dunyodagi «biznes egalari orasida ayollar ulushi eng ko'p mamlakatlar Uganda 38,2%ni, Gana 37,9%ni, Botsvana 36%ni, Buyuk Britaniya 35,1%ni, Yangi Zelandiya 31,8%ni va Rossiya Federatsiyasi 31,2%ni»¹ tashkil etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, «dunyodagi yangi biznes tuzilmalarning 25 foizdan ko'prog'i ayollar tomonidan yaratilgan. Fransiya va Buyuk Britaniyadagi barcha firmalarning chorak qismi hamda Germaniya firmalarining uchdan bir qismini ayollar boshqaradi. Yaponiyada bu ko'rsatkich 23%, AQSHda esa 38%ni tashkil etadi» (Самедова, 2017).

Bugungi kunda tijorat banklari kredit siyosati va tadbirkorlik subyektlarini kreditlash amaliyotidagi kamchiliklar va ularning kelib chiqish sabablari, jumladan, respublikada banklarning kreditlash tartibi xanuzgacha jaxon standartlari va mijozlarning talablariga javob bera olmasligi, rivojlangan davlatlar tijorat banklarining kreditlash amaliyotining mamlakat tijorat banklariga tatbik etishda muammolar mavjud:

tijorat banklari amaliyotida kreditlashning zamonaviy xizmat turlaridan to'liq foydalanilmayotganligi;

tijorat banklari tomonidan ayollar tadbirkorligiga ajratilayotgan kredit liniyalari mablag'laridan samarli foydalanilmayotganligi;

tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kredit mablag'lari miqdorini belgilashda rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlar xisobga olinmaganligi;

tijorat banklari tomonidan taqdim etiluvchi kreditlarning muddatlari va ta'minotlarni rasmiylashtirishdagi muammolar.

Shuning uchun xam ayollar tadbirkorligini kreditlash amaliyotini rivojlantirishda bu boradagi xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va ulardan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirishda foydalanish muxim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Ayollar tadbirkorligi bo'yicha bir qator xorijlik va maxalliy iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

Rossiyalik iqtisodchi olim Alimpieva (2017) tomonidan tadbirkorlik sohasida ayollarni strategik xususiyatlari hamda tadbirkorlikni oilaviy faoliyatiga ta'sirini o'rgangan, Semenov (2018) va Raymanovalarning (2018) tadqiqot ishlari ayollar tadbirkorligini rivojlanishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilgan.

Boshqa bir olim Semyonova (2013) katta va o'rta yoshdagi oliy ma'lumotli ayollar

⁷² сферы услуг Западных стран. www.export.by/act./doc@mode, <http://aftershock.news>: Politeconomica. ru/feb2013/malyj - biznes.: <http://aftershock.news>.

tadbirkorlik faoliyatida yuqori natijalarga erishishga muvaqqat bo'lishadi deb hisoblaydi. O'z biznesini tashkil etish va rivojlantirish uchun ular zarur moliyaviy resurslarni va aloqalaridan foydalangan holda yuqori malakaviy qobiliyatlariga, boshqaruvchilik tajribasiga ega bo'lganliklari uchun, ayollar mustaqil ijodiy izlanishga va tashabbuskorligi namoyon bo'ladi deb ta'kidlab o'tgan.

Ayollar tadbirkorligi faoliyatining mohiyatini to'liq anglab yetish, mamlakat iqtisodiyotida mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning samarasi va ushbu sohadagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularning optimal darajadagi yechimlarini topish uchun tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, uni boshqarishning nazariy jihatlarini bilish va o'rganish talab etiladi (Xusanova, 2021).

Annayevaning (2018) fikricha, O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligi alohida jixatlarga asoslanadi, muammolar ayollarning oiladagi jamiyatdagi mavqeini oshirishga qaratilishi kerak deb hisoblaydi. Iqtisodchi Aripovning (2017) ilmiy tadqiqotlarida ayollarning tadbirkorlikdagi faolligi masalalari ma'lum darajada nazariy ahamiyat kasb etgan.

Abduramanov, Zokirovlarning (2022) tadqiqotlari xotin-kizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qullab-quvvatlash buyicha xorij tajribasi tadqiq qilingan va mualliflar O'zbekiston sharoitida amalda qo'llash yuzasidan takliflar berilgan.

Biroq respublikamizda ayollarni tadbirkorlikka keng jalb qilish borasida muammolarning mavjudligini ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini bildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiy iqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni takomillashtirishda olimlar va soha vakillarining iqtisodiy qarashlari, ularning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar zamirida ayollar tadbirkorligining ahamiyatiga e'tibor qaratilmoqda, xususan O'zbekistonda aholi umumiy sonining 48 foizini tashkil etayotgan mehnatga layoqatli ayollar tashkil qiladi. Ayollarni tadbirkorlikka keng jalb qilish:

iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etish, yetakchi, ixtirochi, yangilikka intiluvchi va ishbilarmon ayollarga iqtisodiy o'sish va yangi g'oyalarni hayotga tatbiq qilish imkoniyatini beradi;

ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularning turmush farovonligini yuksaltirish va o'z hayotlaridan rozi bo'lib yashashlariga ko'maklashishga xizmat qiladi;

ayollar tadbirkorligining qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirish bo'yicha asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi;

gender tengligi ta'minlanishiga xizmat qiladi;

oilada ayollarni kamsitish, maishiy zo'ravonlik illatlarining oldini oladi;

tadbirkor ayollarning huquq va qonuniy manfaatlarini, ularga har tomonlama ko'maklashishni maqsad qilgan nodavlat-notijorat tashkilotlar sonini ko'paytirish orqali ularning mamlakatda va xalqaro miqyosda o'zlarini namoyon qilishga sharoit yaratadi;

O'zbekistonning "Ayollar tadbirkorligi global Indeksi"ga a'zo-davlatlar qatorida yurtimizda ayollar tadbirkorligi rivoji va istiqbollari yo'lidagi sa'y-harakatlar rivojlangan mamlakatlar standartlari asosida olib borilishini, eng asosiysi, ayollar tadbirkorligi rivojining sifatini 3 ta asosiy omil: tadbirkorlik muhiti, tadbirkorlik ekotizimi va ayollarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish istaklari belgilab beradi.

Bugungi kunda respublikamizda xotin-qizlarning rahbar lavozimlardagi ulushi 35 foizga yetgan. 2022-2023 yillarda 398 ming nafar xotin-qizning bandligi ta'minlangan, 100 ming nafari imtiyozli asosda oliygohlarga qabul qilingan, 170 ming nafariga tahsil olayotgan oliygohtarining shartnoma to'lovlari uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratilgan, 14 ming nafari magistraturada bepul o'qitilmoqda, 198 ming nafari kasbga o'qitilgan. Ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 2023 yilning o'tgan davrida 225 mingdan ziyod loyihalarga 4,4 trillion so'mga yaqin kredit, 40 mingga yaqin xotin-qizlarga jami 179,1 milliard so'm subsidiya ajratilgan⁷³.

Ayollar tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sohasidagi xorijiy tajribani o'rganish natijasida eng ommabop ularning faoliyatini moliyalashtirish instrumentlari sifatida kreditlar, shuningdek imtiyozli shartlarda (axoli bankdligini ta'minlash, ayollarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, gender tenglikni ta'minlashni rivojlantirish uchun) mikromoliyaviy kreditlar bo'yicha beriladigan maqsadli kreditlar bo'yicha davlat kafolatlarini taqdim etish hisoblanadi.

Jahon amaliyotida ayollar tadbirkorligini yo'lga qo'yish, g'amda mazkur faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tahliliga ko'ra, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda, tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashda turli yondashuvlar shakllangan (1-jadvalga qarang).

Jumladan, AQSH va Kanada kabi mamlakatlarda ayol tadbirkorlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishida iqtisodiy yondashuv ustun darajada namoyon bo'ladi. Bunda kichik biznesni rivojlantirishda ayollarning tadbirkorlik faolliyatini yo'lga qo'yilishini rag'batlantirilishi iqtisodiyotda foydalanilmayotgan inson resurslaridan samarali foydalanish hisobiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi kuch sifatida qaraladi.

1-jadval

Jahonda ayollar tadbirkorligi boshqaruvini rivojlantirish bo'yicha yondashuvlari va xususiyatlari⁷⁴

Mamlakatlar	Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga yondashuv	Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash Xususiyatlari
AQSH, Kanada	Iqtisodiy yondashuv	Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi kuch sifatida baholanadi
Yevropa Ittifoqi mamlakatlari	Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv	Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish orqali mamlakatlarda ishsizlik darajasini kamaytirish va yangi ish o'rinlari yaratish vazifalarini hal etishga e'tibor qaratiladi
Afrika va Janubiy	Ijtimoiy yondashuv	Amerika mamlakatlari Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish kambag'allikka qarshi kurashish omili sifatida baholanadi
Markaziy Osiyo mamlakatlari	Gender tengligini ta'minlash yondashuvi	Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish ayollarning iqtisodiy jihatdan mustaqilligini ta'minlash omili sifatida qaraladi

Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiruvchi mamlakatlarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakatlardagi ishsizlik darajasini kamaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan, hamda bu mamlakatlar guruhida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv asosida shakllangan.

Afrika va Janubiy Amerika mamlakatlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish asosida aholi daromadlari bazasini mustahkamlash orqali turmush farovonligi darajasini oshirish va

⁷³ https://uza.uz/uz/posts/2024-yilda-ozbekiston-xotin-qizlari-uchun-qanday-imkoniyat-va-imtiyozlar-taqdim-etiladi_552726

⁷⁴ https://newsroom.mastercard.com/wp-content/uploads/2018/03/MIWE_2018_Final_Report.pdf

kambag'allik darajasini qisqartirishga erishish maqsad qilib belgilangan. mazkur holat ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ijtimoiy yondashuvga ustuvorlik qaratilganligini asoslaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari guruhida erkaklar va ayollarning teng huquqligini ta'minlashga alohida e'tibor beriladi.

Ushbu mamlakatlarda ayol-tadbirkorlar tomonidan korxonani boshqaruvi jarayonida ham yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish muhim ahamiyat kasb etishini kuzatish mumkin.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (OECD) a'zo mamlakatlarning real yalpi ichki mahsuloti 2022 yilning uchinchi choragida oldingi uch oyga nisbatan 0,4 foizga o'sdi, yillik ko'rsatkichda o'sish 3,3 foizni tashkil etgan⁷⁵.

Shu bilan birga, aksariyat OECD mamlakatlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlashning soddalashtirilgan tartib-qoidalari, ekspres-garantiya olish shuningdek, to'g'ridan to'g'ri kreditlash, mikrokreditlash, eksport kafolatlari, riskli investitsiyalarni, shu jumladan moliyalashtirish shaklida qo'llab-quvvatlash, investorlar, kraudfanding va mezanina moliyalashtirish ishtirokchilari uchun soliq imtiyozlari olish kabi choralar qo'llaniladi.

OECD mamlakatlarda agrar sohadadagi tadbirkorlikning keng tarqalgan moliyalashtirish instrumentlaridan biri bank krediti bo'lib, undan Yevropa mamlakatlaridagi kichik va o'rta biznes sektori vakillarining 57% foydalanadi, undan keyin esa overdraft va kredit liniyasi (53%) hamla lizing (47%) tashkil qiladi (Говорунова, Родионова, 2017).

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik va o'rta biznes vakillari faoliyatini moliyalashtirishning eng kam qo'llaniladigan instrumenti bu foiz stavkalarini subsidiyalashdir.

Biroq shuni ta'kidlab o'tish joizki, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashda Kanada, Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropa Ittifoqi kabi mamlakatlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ushbu instrumentdan hamda qishloq xo'jaligida venchur moliyalashtirish shaklidan kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda Belarus, Qozog'iston, Ukraina, Shveysariya kabi dalatlarda foydalanilmaydi. Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan moliyaviy instrumentlariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin (2-jadval)

2-jadval

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (OECD) a'zo mamlakatlarda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan moliyalashtirish instrumentlari (Мисник, Кучукова, 2021)

№	Mamlakatlar	Moliyaviy instrumentlar
1	Ispaniya, Niderlandiya, Slovakiya, Sloveniya, Avstriya, Daniya, Finlyandiya, Italiya, Vengriya, Germaniya, Shveysariya, Fransiya, Polsha, Belgiya, Portugaliya, Qozog'iston	kreditlar bo'yicha davlat kafolati
2	Avstariya, Kanada, Chexiya, Daniya, Grksiya, Rossiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Qozog'iston	kichik va o'rta biznesni to'g'ridan to'g'ri kreditlash
3	Vengriya, Portugaliya, Ispaniya, Turkiya, Qozog'iston	foiz stavkalarini subsidiyalash
4	Avstriya, Kanada, Turkiya, AQSH, Buyuk Britaniya, YEI, Qozog'iston	bank kreditlari
5	Daniya, Shveysariya, Niderlandiya, Avstriya, Chexiya, Estoniya, fransiya, Qozog'istoan	startap kafolatlari asosida alohida loyig'alarni taqdim qilinishi
6	Avstarliya, Avstriya, Kanada, Fransiya, Yaponiya, AQSH, Buyuk Britaniya	venchur moliyalashtirish
7	Shveysariya, Irlandiya, Daniya	davlat tomonidan qo'shma moliyalashtirish (shu jumladan nafaqa fondlari)

⁷⁵ <https://daryo.uz/k/2022/11/22/rivojlangan-mamlakatlardagi-iqtisodiy-osish-korsatkichlari-qanday-ozgarmoqda/>

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda jahonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Shunga qaramay, jahon mamlakatlarining 45 foizida ayollarning mehnat bozorida ishtirokini cheklovchi qonunlar mavjud⁷⁶.

2-jadval

Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribalarini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari (Jumayeva, 2024)

No	Davlatlar	Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribalari
1.	AQSH	Bu boradagi ko'plab notijorat tashkilotlarning mavjudligi; Imtiyoz berishda hodimlarning gender tarkibi ham xisobga olinadi;
2	Japoniya	Muvaffaqiyat qozongan tadbirkor ayollarning ATni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xususiy tashabbuslari; Onlayn konsultatsiyalar rivojlanganligi;
3	Xitoy	ATning kasanachilik bilan uyg'unligi; Tashabbuskorlarda ham samarali va innovatsion yondashuv shakllangan;
4	Malayziya	Yolg'iz onalar uchun maxsus tadbirkorlik dasturlari; AT uchun kredit olishda kafolat beruvchi korporatsiya Faolligi;

Yuqoridagi 2-jadvalda asosan mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy holatga birmuncha yaqin bo'lgan Osiyo mamlakatlari tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari berilgan. Yevropa mamlakatlari tajribasi berilmaganligining sababi bu mamlakatlardagi kuchli ijtimoiy himoya, kam farzandlilik, munosib mehnat sharoitlari va to'liqsiz bandlikka keng imkoniyatlar mavjudligi kabi O'zbekistondagi holatdan farq qiluvchi jihatlar mavjudligidir.

Xulosa va takliflar.

Banklar pul mablag'lari xarakatida vositachilik qiluvchi tashkilot sifatida jalb etilgan resurslarni yuqoriroq foiz stavkasida mijozlarga taklif qiladi va shundan foyda ko'radi. Ammo banklar amaliyoti taxliligiga ko'ra tijorat banklari kreditlarining foiz stavkasi bilan axolining muddatli omonatlari foiz stavkalari o'rtasida salbiy farq mavjud, ya'ni tijorat banklari tomonidan yuqori foizda mablag'larni jalb etib, past foiz stavkalarida ularni mijozlarga taqdim qilish xolatlari kuzatiladi. Xolbuki, xalqaro bank amaliyotida qabul kilingan me'yoriy andozalar bo'yicha tijorat banklari kreditlari bilan depozitlari bo'yicha foiz marjasi kamida 4,5 foiz bo'lishi nazarda tutilgan.

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish borasida xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalari ko'rsatdiki:

AQSH tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlash amaliyotidagi mavjud bo'lgan kafolat berish tajribasi, ularning kreditlash amaliyoti takomillashganligidan dalolat beradi;

Bangladesh davlati banklarida kreditlash amaliyoti mijozlarni bir xil imkoniyatga ega bo'lgan guruxlar bo'yicha ajratib, aloxida bank xizmatlarini ko'rsatish va kredit berish amaliyoti takomillashgan;

Islom bank-moliya kreditlash amaliyotini mamlakatga tatbiq kilinishi, tadbirkorlik subyektlariga o'z faoliyatlarini nafakat amaldagi qonunchilik doirasida, balki o'z dinlari talablariga muvofiq tarzda - xalol yo'llar bilan amalga oshirish mumkinligidan dalolat beradi.

Yaponiya davlatining kreditlash amaliyotini quyidagi tajribalarini qo'llash zarur, birinchidan, davlat dasturlarini amalga oshirish uchun maxsus davlat tijorat bankini tashkil etish; ikkinchidan, davlat ulushi mavjud tijorat banklarida davlatning ulushini keskin kamaytirish va to'lik sotish kerak.

O'zbekiston bank amaliyotida innovatsion onlayn kreditlash xizmatlarini

⁷⁶ <https://wbl.worldbank.org/en/data/exploretopics/starting-a-job>

takomillashtirish zarur. Rivojlangan davlatlar bank amaliyotida kreditlash amaliyoti onlayn tarzda keng qo'llanilmoqda. Bu xizmat turini takomillashtirishda internet tezligi va sifatini yaxshilash, tadbirkorlik subyektlarining kompyuter savodxonligini oshirish lozim. Chunki, innovatsion onlayn kreditlash tadbirkorlik subyektlarini ko'p vaqt sarflamasdan kreditlash amaliyotiga bo'lgan talabini qondirish bilan ifodalash mumkin.

Hozirgi kunda jahon miqyosida davom etayotgan muhim jarayonlardan biri bo'lib, xotin-qizlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi, xususan, klaster usulidagi ayolar biznesiga alohida e'tibor berilayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta bizning YAIMdagi ulushi sezilarli ortayotgani e'tirof etilmoqda.

Iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy ishlarini o'rganganimizda, ularning fikriga ko'ra, aynan xotin-qizlar tadbirkorligining salohiyati jahon yalpi ichki mahsulotini ikki barobarga oshirishi mumkinligini ta'kidlab o'tishgan. Jumladan, Boston Consulting Group kompaniyasi ekspertlari ham aynan shunday xulosaga keldi. Ular o'tkazgan tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, agar ayol tadbirkorlar soni erkak biznesmenlar soniga teng bo'lganida, jahon iqtisodiyoti hajmi 2,5 trillion dollardan 5 trillion dollarga oshgan bo'lardi.

Olib borilgan kuzatuvlarimiz va izlanishlarimiz asosida keyingi yillarda davlatimiz rahbariyati tomonidan ayollar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va gender tengligini ta'minlash uchun qonunchilik negizini mustahkamlash, shuningdek, institutsional bazani shakllantirish borasida muhim xuquqiy meyoriy xujjatlar qabul qilinganligini guvohi bo'ldik.

Bugungi kunda yurtimizning mehnatga layoqatli va iqtisodiy jihatdan faol aholisining katta qismini ayollar tashkil etadi, shuni inobatga olib, O'zbekiston Hukumati xotin-qizlar tadbirkorligini respublika iqtisodiy taraqqiyoti uchun eng muhim resurslardan biri sifatida baxolamoqda hamda tijorat banklari tomonidan ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish masalalariga alog'ida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan biznes, ya'ni bolalar va yoshlarni har tomonlama rivojlantirish va ularga ta'lim berish sohasidagi loyihalarning 90 foizi aynan xotin-qizlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotda xotin-qizlar tadbirkorligi ulushini oshirish uchun ayollarga oilaviy va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Shuningdek, ayollar tadbirkorligini moddiy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlashda hamkorlik olib borilmoqda. Mamlakatimiz mehnatga layoqatli aholisining yarmidan ko'pini ayollar tashkil qilishiga qaramay, ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi ulushini aniqlash qiyin. Boisi – ayollar biznesining rivojlanishiga oid aniq ma'lumotlar mavjud emas. Xususan, bugungi kunda sodir bo'layotgan hududiy va global integratsion jarayonlar, milliy ehtiyojlar va ustuvor maqsadlarni hisobga olgan holda, ayol tadbirkorlarning turli taraqqiyot yo'nalishlariga qo'shgan hissasiga baho berish, ayollar tadbirkorligini yanada rivojlantirish kerak bo'lgan sohalarni aniqlash imkoniyatini oshirish zarur.

Iqtisodchi olimlar ayollar tadbirkorligiga ta'sir etuvchi omillarni institutsional, ijtimoiy-madaniy va individual-shaxsiy guruhlariga, shuningdek ichki va tashqi omillarga bo'lib o'rganishgan. Bunda barcha omillar bir nuqtada – motivatsiyada kesishadi, ya'ni keng qamrovli omillar natijasida ayollarning tadbirkorlik qilishga ishtiyoqini so'ndirishi bilan birga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Xorijiy iqtisodchi olimlarning adabiyotlarni o'rgangan holda ayollar tadbirkorligiga oid quyidagi o'ziga xosliklari borligi aniqlandi: o'z-o'zini band qilish shakliga moyillik; ishchi kuchiga kamroq ehtiyoj; muvozanatlashgan ish vaqti; turli sohalarga og'uvchanlik; nisbatan kichikroq hajm; nisbatan sustroq o'sish; faoliyat davomiyligi qisqaroqligi; kamroq iqtisodiy foyda; ayollarga xos faoliyat turlarida keng tarqalganlik.

Jahonda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga juda katta e'tibor qaratiladi. Aksariyat hollarda rivojlangan mamlakatlardagi aholidagi ayollar tadbirkorlar ulushi juda kam, ijtimoiy ta'minot yaxshi yo'lga qo'yilgani uchun ayollarning tadbirkorlik qilish hoxishi nisbatan past, ammo rivojlanayotgan va daromadi past o'lkalarda tadbirkor deyarli yarim aholini tashkil etar

ekan va aynan ayollar kambag'allikdan chiqish uchun tadbirkorlikka, xususan norasmiy faoliyat yuritishga moyil bo'lar ekan. Odatda, ayollar kichik va o'rta biznes subyekti sifatida ushbu mamlakat fuqarosi bo'lgan holda va faoliyatini mazkur hududda amalga oshirishi sharti bilan davlatning faol qo'llab-quvvatlashidan foydalanadi. Bunda davlat yordami xususiy tashabbuslar va jamiyatning ijobiy munosabati bilan uyg'unlashgan holdagina samara berishi kuzatilgan.

Tijorat banklari tomonidan ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni shakllantirishda davlat tomonidan qo'llab quvvatlash maqsadida me'yoriy muhitni yaxshilash borasida doimiy tartibda samarali isloxlarni olib borish zarur. Davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirish ayollar tadbirkorligini tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishni rivojlantirishning asosiy muxim omillaridan biridir. Bunda, bank kreditlari, davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan foydalanish, soliqqa tortish, lizingga oid qonunchilik xujjatlarining bog'liqligi va bir-biriga zid kelmasligini ta'minlash zarur. Davlatning moliyaviy yordamini mustahkamlash ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishning asosiy va zarur sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа/ Reference:

Alimpieva A.V. (2017) *Women's entrepreneurship in the Belarusian and Russian public discourse // PRIMO ASPECTU. № 4 (32). P. 19–30. [Alimpieva A. V. Zhenskoe predprinimatel'stvo v belorusskom i rossiyskom publicnom diskurse // PRIMO ASPECTU. 2017. № 4 (32). S. 19–30] – (In Rus.)*

Annayeva N.R. (2018) *Ayollar tadbirkorligining genezisi, nazariyasi va amaliyoti (Uzbekiston misolida) Falsafa fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarkand.*

Aripov Oybek Abdullayevich (2017) *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ayollarning o'rni. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun.*

Aziza Azlarova (2023) *Features of the development of the banking system of the republic of uzbekistan at the present stage Aziza Azlarova 2023/10/24 Economics and Innovative Technologies Том 11 Номер 5 Страницы 1-7.*

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida " gi PF-87-sonli Farmoni. 07.03.2022 yil. <https://lex.uz/docs/5899498>*

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni, 28.01.2022 yil. <https://lex.uz/docs/5841063>*

Jumayeva Muxlisa Abdug'ani qizi. (2024) *"Tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollar faolligini oshirish", 08.00.15 – "Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" (iqtisodiyoti fanlari). falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati -13 bet.*

Qaror (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori. 22.07.2022*

Raimanova Z.I. (2018) *Actual problems of development of women entrepreneurship in Russia // Reports of the Bashkir University. 2018. № 3 (6). P. 661–664. [Raymanova Z. I. Aktual'nye problemy razvitiya zhenskogo predprinimatel'stva v Rossii // Doklady Bashkirskogo universiteta. № 3(6). S. 661–664] – (In Rus.)*

Semenov R.I. (2018) *Development of women's entrepreneurship in Russia // Quality of science – quality of life. № 11. P. 72–75. [Semenov R.I. Razvitie zhenskogo predprinimatel'stva v Rossii // Kachestvo nauki – kachestvo zhizni. 2018. № 11. S. 72–75] – (In Rus.);*

Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna (2021) *Ayollar tadbirkorligi mexanizmining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati/Iqtisodiyot va ta'lim jurnali 4-son*

Абдураманов Ш. Зокиров (2022) *Хотин-кизларнинг тadbirkorlik va бизнес*

фаолиятини куллаб-қувватлаш буйича хориж тажрибаси.
<https://cyberleninka.ru/article/n/hotin-izlarning-tadbirkorlik-va-biznes-faoliyatini-llab-uvvatlash-b-yicha-orizh-tazhribasi>

Говорунова Т.В., Родионова И.А., Норовяткин В.И., Грищенко К.С., (2017) Оценка эффективности использования государственной поддержки малыми формами хозяйствования аграрного сектора экономики Саратовской области // Аграрный научный журнал. No 2. С. 70-75.

Мисник О., Кучукова Н., (2021) Зарубежный опыт финансирования малого и среднего бизнеса в сельском хозяйстве. <https://stat.gov.kz/upload/iblock>.

Самедова Э.Р. (2017) Развитие женского предпринимательства в Азербайджане. Russian Journal of entrepreneurship #9, (May) 1491 стр.

Семенова Ю.А. (2013) О социальном механизме оптимизации женского предпринимательства // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Социология. Политология. №13(1). С. 33-35.